



Tolib SAFAROV,

Buxoro davlat texnika universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent

E-mail: Safarovtolib407@gmail.com, Orsid ID: 0009-005-1337-2975

O‘ZMU professori, t.f.d A.Ermetov taqrizi asosida

ABOUT THE HISTORY OF THE FORMATION OF THE "TURKESTANSKIY COLLECTION" (TURKESTAN COLLECTION) AND ITS IMPORTANCE

Annotation

In this article, the authorities of the Turkestan Governor-General's Office, established in 1867, highlighted issues related to the necessity of systematically studying this region as a region of great interest to more effectively utilize all available opportunities, particularly the search for communication routes requiring the export of raw materials necessary for the development of Russian industry, as well as the study of the as a result of the proposal to the well-known bibliographer Vladimir Izmailovich Mezhev to compile a collection covering all newspaper and magazine publications related to Central Asia and neighboring countries, as well as scientific works of Russian and foreign authors on various topics, in order to provide information to representatives of the Russian administration and the intelligentsia based on the collection of various information about social, political, historical, economic and cultural life, reflections were made on the processes related to the creation of the "Turkestan Collection".

Keywords: "Collection of Turkestan", K.P.Kaufman, V.I.Mezhov, N.M.Przhevalsky, I.V.Mushketov, P.P.Semenov, N.A.Seversov, N.V.Dmitrovsky, A.A.Semyonov, E.K.Betger, volume, A.Navoi library.

ОБ ИСТОРИИ СОСТАВЛЕНИЯ «ТУРКЕСТАНСКОГО СБОРНИКА» И ЕГО ЗНАЧЕНИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с выходом на повестку дня регулярного изучения Туркестанского генерал-губернаторства, созданного в 1867 году, как региона, вызывающего большой интерес у многих, для более эффективного использования всех имеющихся в нем возможностей, особенно изучение вопросов, связанных с необходимостью поиска путей сообщения, требующих вывоза сырья, необходимого для развития русской промышленности, а также в целях информационного обеспечения представителей российской администрации и интеллигенции на основе сбора различных сведений об общественной, политической, исторической, экономической и культурной жизни, известному библиографу Владимиру Измаиловичу Межову было предложено составить сборник, охватывающий все газетные и журнальные издания, относящиеся к Центральной Азии и соседним странам, а также научные труды русских и зарубежных авторов на различные темы.

Ключевые слова: "Туркестанский сборник", К.П.Кауфман, В.И.Межов, Н.М.Пржевальский, И.В.Мушкетов, П.П.Семенов, Н.А.Северцов, Н.В. Дмитриевский А.А.Семенов, Е.К.Бетгер, том, библиотека А.Навои.

“TURKESTANSKIY SBORNIK” (TURKISTON TO‘PLAMI) NING TUZILISHI TARIXI VA UNING AHAMIYATI HAQIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada 1867-yilda tashkil etilgan Turkiston–general gubernatorligi ma’ murlari tomonidan juda ko’pchilikni qiziqishiga sabab hudud sifatida, unda mavjud bo’lgan barcha imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish uchun bu o’lkani muntazam ravishda o’rganishning kun tartibiga chiqishi, ayniqsa rus sanoati rivoji uchun zarur bo’lgan xom ashyoni olib chiqishni taqozo etadigan aloqa yo’llarini izlash zarurati bilan bog’liq masalalarni o’rganish shuningdek, Turkiston o’lkasining ijtimoiy, siyosiy, tarixiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotiga oid turli ma’lumotlarni to’plash asosida rus ma’ muriyati va ziyoli jamoatchiligi vakillarini axborot bilan ta’minlash maqsadida taniqli bibliograf Vladimir Izmailovich Mejovga Markaziy Osiyo va unga qo’shni mamlakatlarga oid barcha gazeta va jurnal nashrlarini, shuningdek, rus va xorijiy mualliflarning har xil mavzudagi ilmiy asarlarini qamrab oluvchi to’plam tuzishni taklif qilingani natijasida “Turkiston to’plami” tuzilishi bilan bog’liq jarayonlar haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so’zlar: “Turkiston to’plami”, K.P.Kaufman, V.I.Mejov, N.M.Prjevalskiy, I.V.Mushketov, P.P.Semenov, N.A.Seversov, N.V.Dmitrovskiy A.A.Semyonov, Y.K.Betger, jild, A.Navoiy kutubxonasi.

Kirish. Mutaxassislariga ma’lumki, 1867-yilga kelib Rossiya imperiyasi ma’ murlari tomonidan kam o’rganilgan, ammo juda ko’pchilikni qiziqishiga sabab hudud sifatida, shuningdek, unda mavjud bo’lgan barcha imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish uchun bu o’lkani muntazam ravishda o’rganish kun tartibiga chiqadi, ayniqsa rus sanoati rivoji uchun zarur bo’lgan xom ashyoni olib chiqishni taqozo etadigan aloqa yo’llarini izlash zarurati bilan bog’liq masalalar nafaqat Turkiston, balki unga qo’shni mamlakatlarga ta’luqli ma’lumotlarni to’plash vazifasini bajarish o’ta ahamiyatli

masalaga aylangan. To’plamning tuzilish tarixi keyinchalik A.Navoiy nomidagi O’zbekiston Davlat kutubxonasi bo’lgan Turkiston Ommaviy kutubxonasining tashkil etilish tarixi bilan uzviy bog’liq. Biz ushbu maqolada “Turkiston to’plami” tuzilishi tarixi bilan bog’liq ayrim mulohazalarni bayon qilishni lozim topdik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Turkiston to’plami”ni tuzish jarayonida dastlab o’lka haqidagi boy bo’lmagan adabiyotlar tezda tadqiqotchi olimlarning yangi izlanishlari va xorijiy monografiyalarning bir qator tarjimalari

bilan to'ldirilishiga e'tibor qaratilgan. Shu munosabat bilan o'lka general-gubernatori K.P.Kaufman 1867-yil 16-avgustda xalq maorifi vaziri D.A.Tolstoy, Imperator Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti V.Y.Bunyakovskiy Imperator ommaviy kutubxonasi direktori I.D.Delyanov, Imperator Rus geografiya jamiyati prezidenti F.P.Litke va Bosh shtab boshlig'i F.L.Geydenga yangi tashkil etilayotgan Turkiston kitob omborxonasi uchun ilmiy mazmundagi kitoblarning nusxalarini sovg'a qilish iltimosi bilan murojaat qiladi[1]. Xalq maorifi bo'limi Toshkentga arxeografiya komissiyasining ba'zi nashrlarini jumladan, rus yilnomalari, tarixiy hujjatlar va boshqalarning 25 jildlik to'plamini hadya etadi. Imperatorlik Novorossiysk universiteti boshqaruvi Toshkent kutubxonasiga o'zining fondidagi rus, fransuz va nemis tillaridagi 87 nomdagi turli kitoblarni sovg'a qiladi. Moskva universiteti kengashi esa fanning turli yo'nalishlari bo'yicha 66 ta asarni Toshkentga yuboradi. Xarkov universiteti 1869-yilda universitet professorlari tomonidan ilmiy darajalar olish uchun yozilgan bir nechta risolalarni taqdim qiladi va bir necha yil davomida universitet hisobotlari hamda o'z majlislarining bayonnomalarini ham jo'natib turadi. Qisqa vaqt ichida 2200 jild hamda 1200 nomda turli mavzularda asarlar to'planib, Turkiston ommaviy kutubxonasining tashkil etilishiga asos solinadi. Albatta, bunday miqdordagi kitoblar yetarli emas edi. Foydali ma'lumotlar turli xil xabarlar, gazeta va jurnal maqolalarida chop etilgan bo'lib, ushbu materiallarni to'plash, tizimlashtirish va tadqiqot ishi uchun qimmatli manba sifatida saqlash zarurati paydo bo'ladi. Bu mas'uliyatli vazifani K. P. Kaufman taniqli bibliograf Vladimir Izmailovich Mejovga topshiradi[5].

Tadqiqot metodologiyasi. "Turkiston to'plami" ning yaratilish tarixi haqida Mejovning o'zi o'z xatlaridan birida shunday hikoya qilgan: "1867-yilda K.P.Kaufman menga I.S.Idarov orqali murojaat qilib, umuman O'rta Osiyo va ayniqsa Turkiston o'lkasiga oid kitoblar va maqolalarning bibliografik ko'rsatkichlarini tuzishni taklif qildi. U bilan shaxsan uchrashganimda, Toshkent poytaxtdan anchayin olis masofada joylashgan bir paytda, birgina sarlavhalar ro'yxati uning uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lmasligini tasavvur qildim. Buning evaziga men unga kitoblar va maqolalarni o'z ichiga olgan "Turkiston to'plami" ni tuzishni taklif qildim. U rozilik bildirdi va birinchi marta tajriba tariqasida unga Toshkentga 10 jild kitob yubordim, buning uchun 1000 rubl mukofot oldim. Bunday kutilmagan va saxiy mukofot meni mehnatimni yanada sermahsul qilishga majbur qildi va keyingi yillarda xuddi shu gonorar evaziga men 20 dan 30 jildgacha kitob yubordim. Nihoyat, K.P.Kaufman Turkiston o'lkasini boshqargan keyingi yillarda men unga har yili 1000 rubl mukofot evaziga 40 dan 50 jildgacha kitob yetkazib berishga kelishib oldim"[2].

Tahlil va natijalar. To'plamda Qo'qon xonligining bosib olinishi atroflicha yoritilgan bo'lib, 23-jildda Qo'qon xonligi haqidagi "Harbiy to'plam" dan katta maqola va tarixiy-iqtisodiy ma'lumotlar bilan bir nechta gazeta qirgimlari berilgan bo'lib, 30-jildda esa N.N.Obruchev tahriri ostida "Harbiy-statistik to'plam" joylashtirilgan. 114-jildda "Harbiy to'plam"ning 1875-yildagi Qo'qon xonligining 1875-yil voqealarigacha bo'lgan butun tarixini yorituvchi maqolasini, 117-jildda esa o'sha "Harbiy to'plam" ning uchta maqolasida 1875-yil voqealari rasmiy hujjatlar asosida qo'qonliklarga qarshi harbiy harakatlar tafsilotlariga oid ma'lumotlar berilgan. Mejov, shuningdek, "Ruskiy mir" va "Ruskiy invalid" gazetalridagi harbiy harakatlar teatridan olingan xabarlarini o'z ichiga olgan barcha maqolalarni bir jildga to'plagan. Bundan tashqari, 125, 126, 148, 152 va 158-jildlarda xuddi shu masala bo'yicha juda ko'p gazeta va jurnal maqolalari va alohida kitoblar mavjud. Shunday qilib, "Turkiston to'plami" hech

shubhasiz, Qo'qon xonligini bosib olinishi tarixi, iqtisodiyoti, savdosi va etnografiyasi bilan qiziquvchilar uchun mukammal manba bo'lib xizmat qilishi shubhasiz[4].

Turkiston to'plamini tuzish va nashr etish bilan bog'liq ishlar 1887-yilgacha muntazam davom etib, yiliga o'rtacha 20 jilddan nashr etilgan. 1884-yilda Turkiston general-gubernatori N.O.Rozenbax Mejov tomonidan tuzilgan to'planning to'liqligi va qadr-qimmatiga e'tiroz bildirib, asosan, bu ishning moliyaviy tomoniga shubha qilib, N.P.Ostroumov va N.V.Dmitrovskiyga to'plam bilan tanishishni va uni davom ettirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida o'z xulosalarini berishni topshiradi. N.V.Dmitrovskiy N.P.Ostroumov bilan hamkorlikda yozgan "Komissiya a'zolarining "Turkiston to'plami" ni tuzish to'g'risidagi xatida" Mejovning faoliyati batafsil tahlil qilingan. Afsuski, bu xatning matni saqlanib qolinmagan, ammo uning qoralamasini 1924-yilda Leningradda taniqli bibliograf-o'lkashunos N.A.Burov topgan bo'lib, unda to'planning 300 dan ortiq jildlari tahlil qilinib, uning asosiy kamchiliklari ochib berilganligi va o'zining bibliografik ishlari bilan butunlay band bo'lgan Mejov o'ziga topshirilgan ishga munosib darajada e'tibor bermagani, natijada ko'plab muhim asarlar tushirib qoldirilgani yoki bevosita Turkistonga tegishli bo'lmagan materiallar kiritilgani ko'rsatilgan[4].

Shunday qilib, 1887-yildan boshlab ma'muriyatning buyrug'i bilan o'sha paytda juda muhim hisoblangan "Turkiston to'plami" nashrini davom ettirish ustidagi ishlar to'xtatildi, bu esa o'lkani har tomonlama ilmiy jihatdan o'rganish va tadqiq etish vazifasini davom ettirishga soya solgan. Shuni aytish kerakki, mazkur farmoyishning chiqarilishida boshqa holatlar ham muhim rol o'ynagan. N.P.Ostroumov shunday deb yozgan edi: "Kaufman boshqaruv davri uchun bu to'plam bebaho ahamiyatga ega edi, chunki rus adabiyotida faqat Toshkent zabt etilgandan so'ng yevropaliklarning ilmiy tadqiqotlari uchun noma'lum bo'lgan yangi bosib olingan o'lka haqida geografik, etnografik va tarixiy ma'lumotlar paydo bo'la boshladi"[6].

"Turkiston to'plami" ni yaratilishini odatda ikki qismga ajratish qabul qilingan: birinchi qismga 1-416-jildlar (1867-1887-yillar) kiradi, ularni mashhur rus bibliografi V.I.Mejov (1830-1894) to'plagan bo'lsa, ikkinchi qismga 417-594-jildlar kiradi. "Turkiston to'plami" ning bunday bo'linishi to'liq qonuniy hisoblanadi va shubhasiz, bu qismlar orasidagi yigirma yillik katta vaqt oralig'i bilan izohlanadi. Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, "Turkiston to'plami" talab darajasida saqlangan Turkiston Ommaviy kutubxonasining boshqa kitoblari orasida eng mashhur bo'lgan masalan, 1903-yilda uni o'quv zaliga 609 marta tashrif buyurilgan. Ko'pchilik ilmiy doiradagi olimlar bu noyob bosma materiallar to'plamini qayta tiklashni xohlardi, lekin o'sha paytda kelib Mejov tirik emas edi, achinarlisi Peterburgda ham, Moskvada ham unga o'xshash bunday loyihani amalga oshiradigan bibliografik tashabbuskor odam yo'q edi. Lekin e'tiborli tomoni bu vaqtga kelib Toshkentda bibliograflar ham, Geografiya jamiyatining Turkiston bo'limi atrofida to'plangan bir qator taniqli o'lkashunoslar hamda Ommaviy kutubxonaning o'zi ham sezilarli darajada rivojlangan va mustahkamlangan edi. Shunday qilib, "Turkiston to'plami" tarixidagi "peterburg" davri o'mini "Toshkent" davri egallab, bu davrda uni tuzish bo'yicha barcha ishlar asosan Turkiston jamoat kutubxonasidagi mahalliy arboblardan kuchi bilan amalga oshirilgan[4].

"Turkiston to'plami" ni tuzishni qayta tiklash masalasi 1898-yilda ko'tarilgan, ammo masalani muhokama qilishdan amaliy harakatga o'tilmagan. Faqat 1907-yilda kutubxona ishini samarali boshqarish uchun 1876-yilda tashkil etilgan Kuzatuv qo'mitasi tashabbusi bilan bu katta va kerakli ish boshlangan.

To'plamni tuzish ishini qo'mita o'z ichidan tanlab olingan Byuroga topshirgan, uning tarkibiga ko'plab xohlovchilar kirgan, ammo amalda iste'fodagi davlat maslahatchisi, bibliograf N.V.Dmitrovskiy, iste'fodagi kollegial maslahatchi, etnograf A.A.Divayev va Turkiston jamoat kutubxonasi mudiri titulyar maslahatchi I.P.Zikov, shuningdek, keyinchalik qo'mita tarkibiga kirmagan guberniya kotibi, sharqshunos Y.F.Bonch-Osmolovskiy yordam berish istagini bildirganlar. Yuqorida ko'rsatilgan shaxslar tomonidan to'plamning jami 127 jildi tuzilgan bo'lib, unga 4000 rubldan ortiq mablag' sarflangan. Uni tuzishda N.V.Dmitrovskiy asosiy rol o'ynagan[4].

A.A.Semyonov rahbarligi va bevosita ishtirokida "Turkiston to'plami" ning jami 48 jildi ya'ni Toshkent davridagi 175 jilddan iborat qismi tuzildi. Semyonov o'zidan oldingi rahbarlar amal qilgan usullarni qayta ko'rib chiqib, gazeta qirqimlarini yig'ishni to'xtatish zarurligi to'g'risida juda to'g'ri xulosaga keladi. Bunday qaror bir necha sabablar bilan izohlangan. Birinchidan, Mejov davrida Markaziy Osiyo davlatlarining Rossiya tomonidan bosib olinishi davrida uning Angliya va qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlari dolzarb ahamiyatga ega bo'lganligini va nafaqat rus, balki xorijiy matbuotning ham e'tiborini tortganligini, ko'plab gazeta sarlavhalari va maqolalarini keltirib chiqarganligini hisobga olish kerak va Mejov ularni "Turkiston to'plami" sahifalarida saqlab qolish uchun barcha asoslarga ega bo'lgan. XX asr boshlariga kelib bu holat sezilarli darajada o'zgargan. Xalqaro munosabatlarda mutlaqo boshqa muammolar birinchi o'ringa chiqqan, xususan Markaziy Osiyo mavzusi esa o'zining avvalgi dolzarbligini yo'qotgan. Ikkinchidan, A.A.Semyonov oddiy holatni hisobga olgan, gazetalarning o'zi ancha ko'paygan bo'lib, ular ozmi-ko'pmi yirik shaharlarning barchasida nashr etilgan, ba'zan bitta shaharda ikkita, uchta va undan ortiq gazetalari nashr etilgan va ularning barchasini qamrab olish jismonan imkonsiz bo'lgan. Uchinchidan, jurnal maqolalari ko'rinishida chop etiladigan va alohida nashrlar ko'rinishida kitob holida chiqadigan yirik ilmiy asarlar avvaligiga qaraganda ancha ko'proq miqdorda paydo bo'la boshlagan. Shuning uchun ham Semyonov gazeta qirqimlarini to'plashni to'xtatishga qaror qilgan[4].

Ammo "Turkiston to'plami" ni isloh qilishning eng muhim jihati shunda ediki, Aleksandr Aleksandrovich uning jildlariga tizimli tus berib, har birini alohida mavzuga bag'ishlagan. Agar Mejovda bunga ba'zi bir ishoralar bo'lgan bo'lsa, uning dastlabki davomchilarining asarlarida bu narsa yo'q bo'lib, faqat ba'zi bir maxsus jurnallardan, masalan, "Izvestiya Russkogo Geograficheskogo Obshchestva" dan maqolalar to'plangan hollar bundan mustasno edi. A.A.Semyonov ishida esa materialni tizimlashtirish g'oyasi yetakchi tamoyilga aylangan. Semyonov jildlarining bu o'ziga xos xususiyati avvalgilaridan ancha farq qilgan va olimning "Turkiston to'plami" haqidagi qarashlari haqida aniq tasavvur bergan. Shuni ta'kidlash kerakki, materialni tanlashda Aleksandr Aleksandrovich ba'zan to'plamlarga va shaxsan o'ziga topshirilgan asarlarga mualliflik yozuvlarini kiritgan, shuningdek, hozirda hech kimga ma'lum bo'lmagan taxalluslarni oshkor qilgan va ba'zi qiziqarli nashrlarda izohlar bergan. U tuzgan jildlarning aksariyatiga Aleksandr

Aleksandrovich o'ziga xos xattotlik xati bilan sarlavha qo'yan faqat so'nggi 11 jildga u ularni tuzishga ulgurmagan, chunki u 1916-yil iyul oyida Toshkentdan jo'nab ketgan. Uning ketishi bilan to'plamni tuzish ishlari to'xtatilgan[8].

Sovet mustamlakachiligi davrida Mejovning noyob to'plamini tuzish ishlarini davom ettirgan shaxs o'lkashunoslik va bibliografiya bo'yicha taniqli mutaxassis Y.K.Betger edi. U "Turkiston to'plami" uchun bir qator juda qimmatli va foydali bibliografik qo'llanmalar kataloglar, ko'rsatkichlar va shu kabi katta ilmiy qiziqish uyg'otuvchi qo'llanmalarni tuzishda o'z hissasini qo'shgan. 1939-yilda Y.K.Betger tahriri ostida "Turkiston to'plami" ning so'nggi uch jildi tuzilgan bo'lib, ularda XX asr boshlarida M.A.Terentevning "O'rta Osiyoning xaritalar va rejalar bilan bosib olinishi tarixi" asari kiritilgan bo'lib, shundan so'ng to'plamning keyingi davomi butunlay to'xtatilgan[4].

Xulosa va takliflar. Yuqorida bayon qilingan mulohazalarga muxtasar xulosa qiladigan bo'lsak, "Turkiston to'plami" umuman O'rta Osiyo va xususan Turkiston o'lkasiga oid asarlar va maqolalar Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo mulklariga taluqli turli mavzulardagi xilma-xil bosma materiallar, kitoblar, jurnal va gazeta maqolalari, gazeta va jurnallardan qirg'malar to'plamidir. "Turkiston to'plami" ning asosiy qismi 1-jilddan 416-jildgacha taniqli rus bibliografi Vladimir Mejov rahbarligida Sankt-Peterburgda 1867-yildan 1887-yilgacha tayyorlangan bo'lib to'plamning yangi jildlarini tuzish 1907-yilda Toshkentda qayta tiklangan. 1910-yilga kelib bibliograf N.V.Dmitrovskiy rahbarligida 127 jild 417 dan 543 gacha, 1911-1916-yillarda esa sharqshunos Aleksandr Semyonov rahbarligida yana 48 jild(544 dan 591 gacha nashr etilgan. "Turkiston to'plami" ning so'nggi uch jildi 592-tomdan 594-tomgacha bibliografi Y.K. Betger rahbarligida 1939 - yilda tuzilgan. Bundan tashqari, turli vaqtlarda to'plam materiallari uchun bir nechta kataloglar va ko'rsatkichlar tuzilgan[8].

"Turkiston to'plami" ning mazmuni nihoyatda boy va rang-barangdir. Bu o'ziga xos yilnoma sahifalarida o'lkamiz hayotining xilma-xil sohalariga oid xabar va tavsiflarni barcha tafsilotlari bilan topish mumkin. Markaziy Osiyo davlatlarining bosib olinishi, o'lkaning tuzilishi va mustamlakaga aylantirilishi, uning iqtisodiyoti, ishlab chiqarish kuchlarining o'rganilishi, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnografiyasiga oid barcha ma'lumotlar "Turkiston to'plami" da jamlangan. Mustamlaka Turkiston tarixining har qanday mavzusi ustida ishlayotgan tadqiqotchi katalog va kartotekalarda uzoq va mashaqqatli izlanishlar olib borishi, o'nlab to'plam jurnal va gazetalarga obuna bo'lishi, ko'plab kitoblar, risolalar, xaritalar, ma'lumotnomalar to'plashi shart emas. Ko'rsatkichlar bilan qurollanib, to'plamga murojaat qilishning o'zi kifoya va butun ulkan bosma material qiziquvchilar oldida u tadqiq qilayotgan mavzuning barcha tafsilotlarini ochib beradi. Turkiston bo'yicha ushbu noyob materiallar to'plami 594 jilddan iborat bo'lib, hozirda A.Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat kutubxonasi fondida saqlanmoqda. O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo respublikalarining mustamlakachilik o'tmishiga oid birorta ham tarixiy asar, birorta ham doktorlik yoki nomzodlik dissertatsiyasi ushbu nashrlar to'plamisiz yozilmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Бенедиктова Н.Н. «Туркестанский сборник» как источник изучения Средней Азии. — «Литературный Ташкент». Альманах 1. т., 1945 г., стр. 18-52.
2. Фрадкина З.Л. «В.И.Межов (1830—1894)». Под ред. проф. А.Д.Эйхенгольца. М., Изд-во Всесоюзной книжной палаты, 1949 г., с. 3-18.
3. Межов В.И. «Туркестанский сборник ... систематический и азбучный указатель сочинений и статей на русском и иностранных языках», т. 1., СПб., 1878 г., стр. 4-6.
4. Касимова А.Г. «Туркестанский сборник». Ташкент: Фан, 1985 г., стр.1-72.
5. «Туркестанский сборник сочинений и статей, относящихся до Средней Азии вообще и Туркестанскому краю в особенности», т. 1., с. 3.
6. Остроумов Н.П. 2-й Туркестанский генерал-губернатор М.Г.Черняев (1882—1884), 1930 год, машинопись, с. 42.
7. «Отчет Туркестанской Публичной библиотеки и музея за 1907 год», Ташкент, 1908 год, с. 16.
8. Бетгер Е.К. «Туркестанский сборник» и участие в нём А.А. Семенова. Труды Академии Наук Таджикской ССР, том XVII, 1953 год, с. 45.